



## MANG'ITLAR DAVRIDA DAVLAT TUZUMI VA MA'MURIY- HARBIY BOSHQARUV

**Sh.S.Shodiyeva**

*Buxoro Davlat universiteti t.f.f.d, (PhD) dotsent*

**A.A.Toirov**

*Buxoro Davlat universiteti Tarix (mamlakatlar va yo'nalishlar) yo'nalishi  
talabasi.*

**Annotatsiya.** Buxoro amirligining harbiy boshqaruv tizimi birinchi bor kompleks yondashuv asosida tahlil qilindi. Harbiy unvonlar, harbiy boshqaruv idoralari, harbiy rahbarlarning siyosiy tizimdagi o'rni aniq tarixiy dalillar asosida yoritildi. Shuningdek, tarixiy tajribani zamonaviy boshqaruv tizimlarida inobatga olish, o'quv darsliklar va maxsus kurslar uchun ilmiy asos yaratadi.

**Kalit so'zlar:** Amirlik davlat boshqaruvi, qo'shin boshqaruvi, davlat boshqaruv idoralari, lavozimlar.

**Kirish.** Buxoro – O'zbekistonning qadimiy va boy tarixga ega bo'lgan madaniy markazlaridan biri bo'lib, uning siyosiy, ijtimoiy, harbiy va ma'muriy hayoti tarixshunoslik fanida alohida o'rganilishi lozim bo'lgan muhim yo'nalishlardan biridir.

**Buxoro amirligida markaziy va mahalliy boshqaruv.** Buxoro amirligi tarixiy jihatdan Markaziy Osiyodagi eng yirik va nufuzli davlatlardan biri bo'lib, uning siyosiy va ma'muriy boshqaruv tizimi ko'p asrlar davomida o'zining murakkablik darajasi va mustahkam ierarxiyasi bilan ajralib turgan. Ayniqsa, XVIII asrning ikkinchi yarmidan boshlab hukmronlik qilgan Mang'itlar sulolasi davrida davlat boshqaruvining markazlashuvi kuchaydi. Ushbu davrda shakllangan markaziy va mahalliy boshqaruv organlari davlatning siyosiy barqarorligi va harbiy salohiyatini ta'minlashda muhim o'rin tutdi<sup>1</sup>. Buxoro amirligining markaziy boshqaruvi mutlaq hokimiyat sohibi bo'lgan amir tomonidan amalga oshirilgan. Amir nafaqat dunyoviy, balki diniy hokimiyat boshlig'i, ya'ni "amir ul-mo'minin" sifatida tan olingan. Davlat

<sup>1</sup> Shodiyev J. Buxoro amirligi davlatchiligining rivojlanishi. – Toshkent: O'qituvchi, 2010. – B. 45.



hayotiga oid muhim qarorlar Buxoro shahridagi Ark saroyida, shariat qonunlariga asoslangan tarzda qabul qilingan. U nafaqat dunyoviy, balki diniy hokimiyatni ham o'z qo'lida jamlagan<sup>2</sup>. Podsholik taxtiga ko'tarilish quyidagicha bo'lgan. Hamma vazirlar, qozi ul-quzzot va muftiylar dorus-saltanatga yig'ilib, shohlikka loyiq odamni oq kigiz ustiga o'taqazib, muftilar kigizning to'rt burchagidan ko'tarib podsholik taxtiga qo'yib, sultonlik tojini boshiga kiygazib, islom bayrog'ini qo'lga berganlar. Keyin Qur'onni oldiga qo'yib aytganlar, "shariat yo'lidan chiqish mumkin emas, hukmi shariatga mos kelgan ahkomlarga rioya qilib, iqror va farmobardor bo'lish zarur", deb ont ichirganlar. Agar shar'iy hukmlarga, ya'ni Kalomulloh hukmlariga tajovuz etsa, Qur'onga havola etish joiz bo'lmagay. Diniy shart-sharoitlarni tushuntirib, shoh nomiga shohona tabl(nog'ora)larga urib, "islom podshosi, amir al-mo'minin sayid amir falon ibn falonning saltanat davri bo'ldi, Olloh uning hukmronligini va sultonligini abadiy qilsin" deb jar solganlar. Mamlakatning hamma ixtiyori uning qo'lga o'tib, hokimlar tayinlash va ishdan olish ham shohning buyrug'i bilan bo'lgan<sup>3</sup>.

Markaziy boshqaruvdagi asosiy idoralar quyidagilardan iborat bo'lgan:

- Amir – oliy hukmdor, harbiy va diniy rahbar;
- Qo'shbegi – bosh vazir, markaziy idoralarni muvofiqlashtiruvchi shaxs;
- Otaliq – amirlik davlati suverenitetini qo'llab-quvvatlovchi maslahatchi;
- Devonbegi – moliya va iqtisodiy masalalar uchun mas'ul;
- To'pchiboshi – harbiy kuchlar boshlig'i;
- Qozi ul-quzzot – sud hokimiyatining oliy vakili.

Qo'shbegi markaziy hokimiyatda amirdan keyingi eng yuqori lavozim hisoblangan. U barcha boshqaruv idoralarini nazorat qilib, har kuni amirga og'zaki yoki yozma axborot taqdim etib turgan. Tarixchi va davlat arbobi Mirzo Salimbek o'zining mashhur "Tarixi Salimiy" asarida yozishicha, Buxoro amirligida XIX asrda ikkita qo'shbegi lavozimi bo'lgan: "*Qo'shbegiyi bolo*" (Yuqori qo'shbegi) va "*Qo'shbegiyi poyon*" (Quyi qo'shbegi). Qo'shbegiyi bolo (Bosh vazir) Arkda, ya'ni baland qo'rg'onda yashagan va saroy ishlarida yetakchi mavqeni egallagan.U

<sup>2</sup> Abdurahimova N.A., Isakova M.S. Davlat muassasalari tarixi. – Toshkent: Fan, 2007. – B. 92.

<sup>3</sup> Muhammad Ali Baljuvoni Tarixi nofeiy (Foydali tarix) . T.: Akademiya, 2001.- B. 21



doimiy ravishda Arkda amir bilan muloqatda bo‘lib turgan. Qo‘shbegiyi poyon (Bosh zakotchi) bo‘lsa Ark quyisidagi hovlilardan birida yashab, amirlik hududidagi butun soliq ishlarini nazorat qilgan. Mamlakatda favqulodda vaziyat yuz bersa yoki urushlar boshlansa har ikki lavozim birlashtirilib, “*Kulli qo‘shbegi*” (“kull” arabcha so‘z bo‘lib, u “barcha” degan ma’noni bildirgan) lavozimi joriy qilingan. Kulli qo‘shbegi (Ulug‘ qo‘shbegi) amirlikdagi butun hukumat ishlarini o‘z qo‘lida to‘plagan va shoshilinch qarorlar qabul qilgan. Masalan, Turkiston o‘lkasi Xalq Komissarlari Soveti raisi F. Kolesov Buxoroga hujum qilganida (1918-yil mart) kulli qo‘shbegi lavozimiga tajribali Usmonbekbiy inoq tayinlangan<sup>4</sup>. Demak, XIX asrda “Qo‘shbegiyi bolo” va “Qo‘shbegiyi poyon” lavozimlari joriy etilgan bo‘lib, favqulodda holatlarda bu lavozimlar birlashtirilib, “Kulli qo‘shbegi” unvoni berilgan. XVIII asrning o‘rtalariga kelib qo‘shbegi mansabi yetakchi o‘ringa chiqib, u davlat apparatining asosiy bo‘g‘ini sifatida barcha boshqaruvning asosiy funksiyalarini o‘z qo‘liga to‘play boshlagan edi. Qo‘shbegi mahalliy beklar orqali markaziy davlat boshqaruvini amalga oshirish bilan bir qatorda, chet mamlakatlardan keladigan mol-mulklardan olinadigan boj to‘lovlari ustidan nazoratni amalga oshirgan. Qo‘shbegi lavozimiga davlatning tajribali, ishbilarmon, siyosatdan kishilaridan tayinlanib, nomzod avval devonbegi mansabida faoliyat yuritgan bo‘lishi lozim bo‘lgan. U saroydagi eng yuqori unvon egasi sifatida davlatda amirdan keyingi o‘rinda turgan. Turklardagi ulug‘ vazir yoki Yevropadagi davlat kansleri singari, qo‘shbegi amirning eng yaqin maslahatchisi va ishonchli kishisi bo‘lgan. Qo‘shbegi bir vaqtning o‘zida amirning shaxsiy muxrini saqlash, boshqa davlatlar bilan aloqalarni nazorat qilish, shuningdek moliya ishlarini boshqarish kabi mas’ul vazifalarni ham amalga oshirgan<sup>5</sup>. Buxoro amirligi ma’muriy-hududiy jihatdan 27 ta beklik va 11 ta tumanga bo‘lingan. Har bir beklik amir tomonidan tayinlangan bek tomonidan boshqarilgan. Beklar yuqori tabaqaga mansub, ko‘pincha yirik yer egalari bo‘lgan. Ular bevosita amirga bo‘ysungan va har yili iqtisodiy, siyosiy va harbiy faoliyat bo‘yicha hisobot topshirib turgan. Bekliklar o‘z ichida amlodkorliklarga bo‘lingan. Har bir amlodkorlik esa bir necha qishloqlardan iborat

<sup>4</sup> Otamurotova R. Buxoro amirligidagi harbiy mansablar. – Urganch DU, 2015. – B. 17.

<sup>5</sup> Shodiyev J. Buxoro amirligi davlatchiligining rivojlanishi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2010. – B. 29.





bo‘lib, ular ular mahalliy oqsoqollar, mirshablar, zakotchilar yordamida boshqarilgan<sup>6</sup>. Amlokdorlik tizimi bekliklarni yanada mahalliy darajada idora etishda muhim vosita bo‘lgan. Mahalliy boshqaruvda quyidagi lavozimlar mavjud bo‘lgan:

- Bek – beklik boshlig‘i;
- Amlokdor – yer-mulk va soliq tizimi boshqaruvchisi;
- Mirob – suv resurslarini nazorat qiluvchi;
- Zakotchi – soliq yig‘uvchisi;
- Dorug‘aboshi – tartib va jamoat xavfsizligi uchun mas‘ul.

Buxoro amirligi hukmronligida mahalliy hokimiyat markaziy hokimiyatga bo‘ysunar, lekin bekliklar ayrim holatlarda nisbiy mustaqillikka ega bo‘lgan. Ayrim yirik bekliklar, masalan, Samarqand yoki Qarshi beklari strategik ahamiyatga ega bo‘lgan. Bu tizim markazdan yuborilgan farmonlarni mahalliy darajada amalga oshirishda muhim rol o‘ynagan<sup>7</sup>.

**Mang‘itlar davrida ma‘muriy-harbiy boshqaruv mexanizmlari.** Mang‘itlar sulolasining Buxoro amirligi taxtiga chiqishi XVIII asrning ikkinchi yarmiga to‘g‘ri keladi. Bu davrda mamlakat ichki siyosiy beqarorlikdan aziyat chekayotgan edi. Mahalliy feodallar orasidagi ziddiyatlar, markaziy hokimiyatning zaiflashuvi, iqtisodiy inqiroz davlat boshqaruv tizimini tubdan qayta ko‘rib chiqishni taqozo etgan. Aynan mana shunday vaziyatda Mang‘itlar hokimiyat tepasiga kelib, ma‘muriy va harbiy boshqaruv tizimini markazlashtirishga kirishdilar. XVIII asming ikkinchi yarmiga kelib amirlik hukmdorlari mavjud siyosiy nizolar va tashqi xavf-xatarni inobatga olgan holda muntazam qo‘shin tashkil etishga kirishganlar. Buxoro amirligida amir oliy bosh qo‘mondon bo‘lib, unga sarkarda, amirlashkar, dodxoh (qo‘shin boshlig‘i), qo‘ronbegi, to‘qsabo, mingboshi kabi oliy toifali harbiy amaldorlar bo‘ysungan. Bekliklar hududidagi qo‘shinga beklarning o‘zlari rahbarlik qilgan. Beklarning harbiy tizimdagi yaqin yordamchilari yasovulboshi boshchiligidagi yasovullar bo‘lgan. Yasovulboshi bekning o‘ng qo‘li, eng yaqin va ishonchli yordamchisi, miroxurdan to‘qsabogacha bo‘lgan lavozim hisoblangan. Katta bekliklarda yasovulboshilarning soni ikki nafar

<sup>6</sup> Islomov M. O‘zbekiston davlatlari tarixi. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2009. – B. 115.

<sup>7</sup> Abdurahimova N.A., Isakova M.S. Davlat muassasalari tarixi. – B. 98.



bo'lib, ular birinchi va ikkinchi yasovulboshi deyilgan. Yasovulboshining yordamchisi yasovul bo'lib, ularning soni birdan uch nafargacha va yirikroq bekliklarda undan ham ko'proq bo'lgan. Qo'shinda ponsadboshi, yuzboshi, ellikboshi, o'nboshi, miroxur kabi bo'linma boshliqlari xizmat qilgan<sup>8</sup>.

**Xulosa.** O'rta Osiyo xonliklaridagi hokimiyat tuzilishi, davlat boshqaruv tizimi mang'itlar sulolasi hukumronligi davriga kelib takomillasha bordi. Jamiyatning barcha sohalari markazlashgan boshqaruv tizimiga bo'ysundirilib, davlat boshqaruvi amirning cheklanmagan hukmronligi qo'li ostida mujassamlashdi. Harbiy unvon va mansab egalari va ularning vazifalari, faoliyati ma'lum ma'noda XIX asr oxirlaridan boshlab zamonaviy tartibga o'ta boshladi. Harbiy amaldorlikning ko'pincha nasldan naslga o'tib turishi harbiy xizmatga bo'lgan munosabatga salbiy ta'sir etardi. Umuman, amirlikdagi harbiy amaldorlarning hashamati yuqori bo'lib, siyosiy va harbiy bilimlari, ilmiy salohiyati, uquvi zamon talablaridan ancha orqada edi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Abdurahimova N.A., Isakova M.S. Davlat muassasalari tarixi. – Toshkent: Fan, 2007. – B. 92.98.
2. Shodiyev J. Buxoro amirligi davlatchiligining rivojlanishi. – Toshkent: O'qituvchi, 2010. – B. 29.45.
3. Muhammad Ali Baljuvoni Tarixi nofeiy (Foydali tarix) . T.: Akademiya, 2001.- B. 21
4. Otamurotova R. Buxoro amirligidagi harbiy mansablar. – Urganch DU, 2015. – B. 17.
5. Islomov M. O'zbekiston davlatlari tarixi. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2009. – B. 115.
6. Zamonov A, Egamberdiyev A. Buxoro amirligi tarixi (XVIII asr o'rtalari - XIX asr o'rtalari): uslubiy qo'llanma.-T.: Tamaddun, 2022.- B.116

---

<sup>8</sup> Zamonov A, Egamberdiyev A. Buxoro amirligi tarixi (XVIII asr o'rtalari - XIX asr o'rtalari): uslubiy qo'llanma.-T.: Tamaddun, 2022.- B.116